

TALABALIK DAVRIDA O'Z INDIVIDUAL IMKONIYATLARINI RO'YOBGA CHIQRISH PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA

Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi

**Alfraganus university "Pedagogika va psixologiya" kafedrası dotsent v/b, psixologiya
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14921373>

Shaxsning o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish fenomeni psixologiya fanida ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida o'rganiladi. Xususan, ushbu fenomen bir tomondan ijtimoiy muhit, faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari, ikkinchi tomondan esa insonning individual shaxsga oid sifatlari bilan shartlanadi. Shaxsdagi o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishning mohiyati o'zini o'zi namoyon qila olish, tashqi muhit bilan o'zaro munosabatga kirishish va faoliyatni amalga oshirish jarayonida inson tomonidan o'z individualligini ko'rsata olishdir.

Insonning o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi nafaqat kasbga oid vaziyatlar va hal etilishi kerak bo'lgan masalalarga, balki individual xususiyatlar, shaxsiy determinantlarga ham bog'liq. Aynan shuning uchun ham insonlar bir xil bo'lgan u yoki bu vaziyat va sharoitlarda o'z individual imkoniyatlarini turli xil ko'rinishda namoyon etadilar. Bu o'z navbatida inson xulq-atvori va faoliyatining bevosita boshqaruvchisi uning psixikasi ekanligi bilan tushuntiriladi. O'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqaruvchi shaxs xulq-atvorining bevosita psixologik mexanizmlari uning o'zida yuzaga keladi. Ayniqsa, u shaxs xulq-atvori, xatti-harakatlari, munosabatlari va muhitning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq [3].

Ma'lumki, shaxsning o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uzluksiz davom etadigan jarayon. Har bir inson o'zida mavjud bo'lgan barcha imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradi. Shu bois mazkur jarayonning yuzaga kelishi uchta bosqichga bo'linadi: tayyorgarlik, asosiy va yakuniy.

Tayyorgarlik bosqichining asosiy mazmuni inson o'z shaxsini aniqlashdan iborat. Bunda o'zini shaxs sifatida rivojlantirish jarayonida o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga bo'lgan ehtiyojni aniqlash, o'zining pozitsiyasini, uni o'rab turgan muhitga bo'lgan munosabatini ishlab chiqish, jamoaning roli formal va noformal tuzilishida o'z o'rnini belgilash, o'z xatti-harakatlarini, xulq-atvorini qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishdagi usul va vositalarni asoslash va ularga javob qaytarish amalga oshiriladi.

Amalga oshirish bosqichi. Bu inson tomonidan o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish jarayonida maqsadlarga erishish va ularning amalga oshirilishidir.

Yakuniy bosqichda inson tomonidan o'z individual imkoniyatlarini amalga oshirish darajasi va natijasi baholanadi hamda qiyinchiliklarning yuzaga kelish sabablari aniqlanadi. Mazkur bosqich asta-sekinlik bilan birinchi bosqichga o'tadi, undan shaxsning keyingi individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish jarayonidagi maqsadlar, usul va vositalarning korreksiya jarayoni amalga oshiriladi. Bu jarayonda barcha bosqichlar o'zaro bir-biri bilan bog'liq lekin mustaqil hisoblanadi [1].

O'z o'rnini belgilash – shaxs o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishining muhim chegarasi, tomoni va bosqichi hisoblanib, o'zining ko'p jihatlarini bilan uning tarkibiy va

jarayonli-instrumental xususiyatlarini aniqlaydi. O'z navbatida shaxsning individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uning layoqatlari, qobiliyatlari bilan taqozolanadi [2].

Ma'lumki, talabalik davri bu- his-tuyg'ular, istaklar, kuch-quvvat va zavqu-shavq, kuch-g'ayratga to'la davr hisoblanadi. Mazkur yoshda shaxsning o'zini o'zi namoyon qilishi, ma'lum pozisiyani egallashi uchun hayotiy zaruratga aylanib qoladi.

Shu o'rinda aytish lozimki, o'z individual imkoniyatlarini namoyon qilish hozirgi kunda o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, chuqur ijtimoiy o'zgarishlar davrida va demokratik jamiyatdagi yangilanishlar o'z ortidan insonning o'z kuchiga bo'lgan ishonchini barqarorlik hissini yo'qotishga olib keladi va turli xil buzg'unchilik hamda tartibsizliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun o'z mavqeini o'zi belgilash kerak bo'lgan hayot ostonasining chegarasida turgan hamda o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va ijtimoiy sohalarga doir izlanishlarda bo'lgan ayni vaziyatda eng katta psixologik qiyinchiliklar boshiga tushadi. Izlanishlar jarayonida yo'nalishlarning mavjud emasligi talablar, o'z shaxsini namoyon qilishdagi tartibsizlik, tarqoqlik, atroflicha fikrlamaslik, oxiriga yetkazmaslik uni, to'liq darajada amalga oshmaydigan qilib qo'yishi mumkin [1].

Talabalik – bu shaxs shakllanishining yakunlovchi davri hisoblanadi. Bu davr yetilish bosqichi bo'lib, o'z davri kelganida hayotda kerak bo'ladigan ahamiyatli narsalarning yo'nalishini belgilab beradigan, ongda fundamental ko'rsatmalarning shakllanish davridir.

O'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish talabaning yetuklik davrida mustaqil hayotga o'tishi bilan izohlanadi. Boshdan kechirilgan taassurotlardan, o'z tajribasida sinalgan xatti-harakatlarning natijasida kelib chiqqan oqibatlardan shaxsiy dunyoqarash kurtaklari shakllanadi. Natijada insonning dunyoqarashi kengayadi, e'tiqodlari paydo bo'ladi. Bu esa o'z navbatida shakllanayotgan shaxsning xatti-harakatlariga va hayotiy faoliyatiga ta'sir qiladi. Bu jarayonda kattalarning o'rni beqiyos – ular talabalarni o'zini o'zi tarbiyalashlariga va o'zlarini tashkillashtirishlariga yordam ko'rsatishlari zarur. Ayniqsa, ulardan talaba o'zi istagan narsasiga erishishi uchun rejalashtirishni o'rganishi va nimadan ehtiyot bo'lishini tushunishni bilib olishi kerak. Talaba dunyoni anglashdan uni qayta qurishga o'tadi hamda faol tarzda o'zining faoliyatida tasdiqlay boshlaydi. Talabalikning yetuklik davrida mustaqil hayot dolzarb muammoga aylanib boradi. Uni yechimi uchun o'z faoliyatini tashkillashtira olish malakasi, mas'uliyatli qarorlarni qabul qila olish va ularni hayotga tadbiiq etishi zarur [2].

Shunday qilib, talabalik davrida shaxsning shakllanishi va xayotda o'z o'rniga ega bo'lishi bilan bog'liq faoliyati insonlarning ichki pozisiyasini egallashga ehtiyoji, jamiyatda o'z o'rnini anglashga intilishi, o'zini va o'z individual imkoniyatlarini anglash jarayoni yorqin namoyon bo'ladi. Shaxs o'zining ko'z o'ngida va boshqalar nigohida o'zining ahamiyatli ekanligini ko'rsata olishi uning eng muhim maqsadi bo'lib qoladi. Bu yoshda talaba ongida fundamental ko'rsatmalar o'rnashib qoladi. Keyinchalik, vaqt o'tgan sayin ular hayotning eng qimmatli yo'nalishlarida o'z aksini topa boshlaydi. Yigit va qizlar uchun o'zlarining ichki "Men"larini kashf etishdan va dunyoqarashlarini shakllantirishlaridan tashqari kasb tanlovi ham teng darajada muhimdir.


Inson dastlab dunyoni anglashidan uni qayta yaratishga o'tadi, faol tarzda o'z shaxsining kasbiy faoliyatida namoyon qila boshlaydi hamda o'zining hayot yo'lini tanlaydi. Mazkur tanlovlarning muvaffaqiyatli rivojlanishi va kelajakdagi katta hayotning samaradorligi

to'g'ridan-to'g'ri uning rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Shuning bilan birga ularning katta xavf ostonasiga ilk qadam bosishlariga asosiy ta'sir o'tkazadigan psixologik tayyorgarliklarga o'tish jarayoni asta-sekinlik bilan, shoshmasdan, bir me'yorda amalga oshirilishi zarur. Shu bois, talabalik davrida o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga ta'sir etuvchi psixologik omillarning rolini ochib berish muhim hisoblanadi [1].

Darhaqiqat, talabalik davrida shaxs qanchalik o'zini o'zi anglashi, o'zini o'zi baholashi, o'zini o'zi boshqarishi, nazorat qilishi, o'zini o'zi tarbiyalashi kabi refleksiv jarayonlarning rivojlanishi ularda o'z imkoniyatlarini namoyon qilishga nisbatan ongli munosabatni yuzaga keltiradi. Shu nuqtai nazardan olganda, talabalik davrida o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga ta'sir etuvchi psixologik omillarni o'rganish muhim sanaladi.

References:

1. Алберти Р., Эммонс М. «Самоутверждающее поведение.» – СПб.: Гуманитарное агентство «Академический проект», 1998. – 188 с.
2. Жизномирская О.Я. «Особенности построения жизненных планов на будущее и самоутверждения личности в период взросления/» // Молодеж и рынок- № 8 (31) – август, 2007.-С 118-122.
3. Харламенкова Н. Е., Никитин Е. П. Разработка валидной процедуры оценки самоутверждения личности // Психологический журнал. – 2000. – Т. 21. – № 6. – С. 67



INNOVATIVE
ACADEMY